

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”

rektor Sh. Sirojiddinov

2019 yil “1” 07

“KELISHILDI”

Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi

2019 yil “9” 10

Ro‘yxatga olindi: № MD-5A120101-1.02.

MD-5A120101-1.02.

MD-5A120104-1.02.

2019 yil “17” 08

“MAXSUS FANLARNI O‘QITISH METODIKASI”

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta‘lim sohasi:	120000 – Gumanitar fanlar
Mutaxassisliklar:	5A120101-Adabiyotshunoslik (Oliy adabiyot kursi) 5A120101-Adabiyotshunoslik (O‘zbek adabiyoti) 5A120104-Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

Toshkent – 2019

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2019-yil 17.08 dagi "4" -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 4.10 dagi 892 - sonli buyrug'ining 2 -ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:



Karomat Mullaxo'jayeva – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'zbek tili va adabiyoti tarixi va folklor kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

Taqrizchilar:

Boqijon To'xliyev – Toshkent davlat Sharqshunoslik instituti professori, filologiya fanlari doktori.

Nurboy Jabborov – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2019-yil 1.07 dagi 11-sonli bayonnomasi).

 P. I. Ibragimov
 R. M. Karomat

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Ushbu "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" fani O'zbekistondagi oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlarining "Adabiyotshunoslik" mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan magistrantlariga mo'ljallangan.

Taqdim etilayotgan dastur universitetlarda adabiyotshunoslikka oid fanlar haqida konseptual va to'liq tasavvur beruvchi adabiyotshunoslik fanlarini o'qitish tajribasi va an'alarini, shuningdek, xuddi o'qituvchilardek talabalarning ham o'quv va ilmiy-tadqiqot faoliyatini ular bilan birga olib borishini o'zida aks ettiradi. Mazkur kursning zarurligi yana shu bilan ham bog'liqlik, hatto yuksak darajadagi bilimning o'zi muvaffaqiyatli dars berish uchun yetarli bo'lmaydi. O'qituvchining mashg'ulotlarni turli usul va texnikalar yordamida tajribada to'plangan dars o'tish metodikasiga ega bo'lishi, shuningdek talabalar faoliyatini tashkil etishi va boshqarishi kam ahamiyatga ega emas. Ushbu kursni o'rganish o'qituvchining o'z pedagogik mahoratini oshirish bo'yicha kelgusidagi ishlariga, mamlakatimiz va xorijdagi yetakchi adabiyotshunoslarning hamda hamkasblarining pedagogik faoliyatini o'rganishga, o'z kasbiy faoliyatini tahlil qilish va o'qitishning yangi shakl, metodika va vositalarini izlashiga imkon beradi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

"Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" fanini o'qitishdan maqsad – oliy ta'lim bosqichida adabiyotshunoslikka oid fanlarning mazmun-mohiyati, ularni o'qitishda o'ziga xosliklarni, jumladan, O'zbekistondagi oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlarida o'qitiladigan adabiyotshunoslikka oid fanlarning barcha turkumlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari, nazariy-adabiy va tarixiy-adabiy kurslarning qurilishi va qo'yilishi, ularning bir-biri bilan va boshqa filologik fanlar bilan bog'liqligi hamda ularning filologik ta'limdagi o'rni haqida; adabiyotshunoslik fanlari bo'yicha mashg'ulotlarning asosiy shakllari va ularni olib borish metodikasi; oliy ta'lim o'qituvchisining darsga tayyorgarlik ko'rish, talabalarning mustaqil ishlari va ilmiy faoliyatiga rahbarlik qilish hamda o'zining kasbiy darajasini oshirib borish bo'yicha bajaradigan ishlarini o'rganishdan iborat.

Fan bo'yicha magistrantlarning bilim, ko'nikma va malakalariga ushbu talablar qo'yiladi. Fanni o'zlashtirish natijasida magistrant:

— oliy o'quv yurtida ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini; oliy o'quv yurtida filologik fanlarni o'qitishning davlat standartlarini; oliy o'quv yurtida filologik fanlarning maqsad va vazifalarini; oliy ta'limdagi o'qitishning asosiy didaktik paradigmalarini, metodlari, prinsiplari va o'qitish vositalarini, adabiyotshunoslik sohasida o'qitish natijalarini nazorat qilishni *bilishi*;

— olingan bilimi va shakllantirgan mahoratini oliy o'quv yurtida filologik/adabiyotshunoslik fanlarini o'qitishdagi nazariy va amaliy faoliyatida qo'llash *ko'nikmalariga ega bo'lishi*;

— adabiyotshunoslik fanlarini o'qitishda zamonaviy metod va usullarni qo'llash, adabiyotshunoslik fanlarini o'qitishda talabalarning og'zaki va yozma nutq malakalarini o'stirishning shakl va usullarini jalb qila olish; adabiyot ta'limi jarayoniga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillar ta'sirini baholay olish va shu asosda samarali ta'limni rejalashtirish, talaba bilimini to'g'ri baholash *malakasini egallashi lozim*.

I. Asosiy nazariy qism (ma'ruza ashg'ulotlari)

1-modul. Adabiyot o'qitish metodikasining ilmiy-nazariy asoslari

1-mavzu. Kirish. Adabiyot o'qitish metodikasining ilmiy-nazariy asoslari va uning tanqidiy tahlili

Ta'lim bugungi jamiyatimizning hal qiluvchi omili sifatida. Bugungi tarixiy-madaniy sharoitda ta'lim sistemasini tashkil etish va yaratishning falsafiy va metodologik asoslari. Gumanitar fanlarni o'qitishning roli va o'ziga xos xususiyatlari. Universitet filologik ta'limining roli va o'ziga xos xususiyatlari. Oliy filologik ta'lim konsepsiyasi. Universitet filologik ta'limi strukturasi. Oliy o'quv yurti adabiyotshunoslik ta'limining maqsadi, vazifalari, mazmuni va muammolari. O'quv rejasiga kiritilishi lozim bo'lgan adabiyotshunoslik fanlari turkumi, talabalarning filologik tayyorgarligida ularning roli, ularning birbutunligi, uzviyligi va farqli jihatlarini, ularning bir-biri bilan va filologiya fakultetlarida o'qitiladigan boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi.

Adabiyotshunoslik ta'limining uch asosiy mazmuniy-mundarijaviy komponentlari: adabiyot, u haqidagi bilimlar, uni tahlil va talqin qilish usul va vositalari. Adabiyotshunoslik fanlarining professional, rivojlantiruvchi hamda gumanitar va ma'naviy-tarbiyaviy yo'nalishga ega ekanligi. Ularni o'rganishdagi uzviylik hamda talabalar tomonidan adabiyotshunoslik faoliyatining o'zlashtirish shakllari va vositalari. Adabiyotshunoslikka oid o'quv fanlarining adabiyotshunoslik ilmi bilan aloqasi va o'zaro munosabati.

Mamlakatimiz universitetlarida adabiyotshunoslikka oid fanlarning qo'yilishi va o'qitilish tarixi. Vatanimiz universitetlari professor-o'qituvchilarining yuksak pedagogik mahorati. Ularning mamlakatimiz ma'naviy va madaniy hayotidagi o'rni.

2-mavzu. Adabiyotshunoslikka oid fanlarni o'rganish tizimida umumiy kurslarning ahamiyati

Adabiyotshunoslik umumiy kurslarining o'rni, roli va tabiati. Umumiy kurs talabalarga adabiyot va tarixiy-madaniy jarayon haqida yaxlit, sistemali va konseptual

tasavvur berish uchun muhim vosita. Umumiy kurslarga qo'yiladigan talablar, ularning strukturasi, ular tuzilishining metodologik prinsiplari, ularning zamini, o'quv, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy ahamiyati. Umumiy kurslarni o'qitishda va o'rganishda ma'ruzalar va o'quv qo'llanmalari, ilmiy va ilmiy-tanqidiy adabiyotning roli. OO'YU umumiy adabiyotshunoslik kurslarining adabiyotshunoslik strukturasi, badiiy ijod haqidagi ilm va tegishli ilmiy predmetlar bilan bog'liqligi. Umumiy kurslarni tayyorlash, o'qituvchining ularni tashkil etish, tuzish va ishlab chiqish bo'yicha olib boradigan ishlari – faoliyati. XX asrgacha bo'lgan oliy ta'lim tizimida umumiy kurslar. (Madrasalarda adabiyot ta'limi.) Ularning adabiyot fani taraqqiyotidagi roli. Mamlakatimizdagi yetuk professorlar umumiy adabiyotshunoslik kurslarining yaratuvchilari sifatida. (Abdurauf Fitrat, Maqsud Shayxzoda, G'ulom Karimov, Natan Mallaev, Botir Valixo'jaev va boshqalar). Mutaxassislik kafedralari umumiy kurslarni tayyorlash bo'yicha ta'limiy markaz sifatida.

3-mavzu. Adabiy-nazariy va adabiy-tarixiy kurslar

Oliy o'quv yurtlarida nazariy-adabiy kurslarining ahamiyati. "Adabiyotshunoslikka kirish" kursining vazifalari va mazmuni haqida bugungi qarashlar, nuqtai nazarlar, ushbu kursning talabalarni adabiyotshunoslikka tayyorlashdagi roli, uning boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Kurs bo'yicha tuzilgan dasturlar va o'quv qo'llanmalari. "Adabiyot nazariyasi" fanining vazifasi va mazmuni, uning talabalarni adabiyotshunoslikka tayyorlashdagi roli, boshqa filologik fanlar, estetika, falsafa va psixologiya kurslari bilan bog'liqligi. Oliy o'quv yurtida "Adabiyot nazariyasi" kursining tuzilish prinsiplariga bugungi yondashuvlar. Kurs bo'yicha tuzilgan dasturlar va o'quv qo'llanmalari. Ushbu kursni o'qitishdagi qiyinchiliklar va o'ziga xosliklar.

Tarixiy-adabiy kurslarning maqsadi, ularning tuzilish sistemasi va prinsiplari. Adabiyot tarixining tuzilish prinsiplari haqida bahs. O'zbek adabiyoti tarixi bo'yicha kurslar, ularning professional, madaniy va tarbiyaviy ahamiyati. O'zbek adabiyoti tarixining O'zbekiston tarixi va o'zbek madaniyati bilan bog'liqligi. O'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish masalasi va boshqa bahsli muammolar. Eng qadimgi davr adabiyoti (islomgacha bo'lgan davr), islom kirib kelgan davrdan to yigirmanchi asrgacha bo'lgan vaqt oralig'idagi katta adabiyot – o'zbek mumtoz adabiyotini o'rganish va o'qitish muammolari. O'zbek adabiyoti tarixi bo'yicha dastur va o'quv qo'llanmalar.

MDH xalqlari adabiyoti hamda jahon adabiyoti umumiy kurslari, ularning vazifalari va mazmuni. Jahon adabiyoti tarixini davrlashtirish, uning rivojlanishi asosiy davrlari (epoxalari) va adabiy yo'nalishlar. Zamonaviy chet el adabiyotini o'qitish prinsiplari. Kurs bo'yicha dastur va o'quv qo'llanmalar.

"O'zbek adabiy tanqidi tarixi" kursining vazifalari, xususiyatlari mazmuni va tuzilish prinsiplari. Kursni davrlashtirish. Kurs bo'yicha dastur va o'quv qo'llanmalar.

Propedeutik kurslar (jumladan, o'zbek adabiyoti tarixi kursining dastlabki – mumtoz adabiyotga kirish qismi kabi), ularning vazifasi. O'zbek xalq og'zaki ijodi kursi, uning vazifasi, boshqa adabiyotshunoslik kurslari bilan bog'liqligi.

Mumtoz adabiyotni, o'zbek adabiyoti tarixini o'rganishda muhim o'rin tutgan yordamchi fanlar. Tasavvuf va badiiy ijod masalalariga, matnshunoslik va manbashunoslikka oid fanlar.

Talabalarning adabiyotshunoslik bo'yicha tadqiqotlar olib borish texnikasi va metodikasini hamda darslarda o'quv va ilmiy adabiyotlar bilan ishlash shakllari va usullarini rivojlantirishga yo'naltirilgan kurslar.

4-mavzu. Adabiyotshunoslikka oid predmetlarni o'rganish tizimida maxsus kurs va maxsus seminarlar

Adabiyotshunoslik predmetlari bo'yicha maxsus kurslar, ularning maqsadi, vazifalari, tematikasi – mavzusi, tuzilish prinsiplari, umumiy kurslar bilan munosabati. Maxsus kurslar tizimi, ularning badiiy ijod haqidagi fanning dolzarb muammolari va kafedra hamda professor-o'qituvchilar va ilmiy tadqiqot faoliyati bilan bog'liqligi. Maxsus kurslarda talabalar bajaradigan ishlar. Adabiyotshunoslik muammolari bo'yicha maxsus seminarlar, ularning vazifalari, mazmuni, olib borish metodikasi, umumiy va maxsus kurslar bilan aloqadorligi. Maxsus seminarlarda talabalar bajaradigan ishlar, ularni o'tkazishda o'qituvchining roli va vazifalari. O'zbek shoirlari, o'zbek yozuvchilari ijodi bo'yicha seminarlar. Proseminariylar (o'zlashtirish qiyin bo'lgan mavzulardan oldingi tayyorgarlik mashg'ulotlari) talabalarda ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantirishning dastlabki shakli sifatida.

2-modul. Adabiyot o'qitishning amaliy asoslari

5-mavzu. Adabiyotshunoslikka oid kurslar bo'yicha mashg'ulotlarda dars o'tish shakllari

Adabiyotshunoslik predmetlari bo'yicha o'quv mashg'ulotlarining shakllari. Ma'ruza umumiy kurslar va maxsus kurslarni o'qitishning asosiy shakli sifatida. Ma'ruzalarning turlari va ularga qo'yiladigan talablar. Ma'ruzaning an'anaviy va noan'anaviy shakllari. Ma'ruzani o'tishda dialog prinsipi. Ma'ruza vaqtida talabalar diqqatini faollashtirish va ularni qiziqtirish hamda materialni anglashi uchun o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlashga jalb etish. Ma'ruza mavzusini ochishda talabalarning ishtirok etish imkoniyati. Ma'ruzaning fan dasturi, o'quv qo'llanmalari mazmuni va badiiy ijod haqidagi bugungi ilmiy qarashlar bilan munosabati, ularning muvofiq kelishi. Ma'ruza uchun material tanlab olish prinsiplari. Adabiyotshunoslik predmeti bo'yicha ma'ruza mashg'uloti va unga qo'yiladigan talablar. Ma'ruzaga tayyorgarlik ko'rish, uning tuzilishi va uni amalga oshirish. Ma'ruza o'qish va uni o'tkazishda o'qituvchining roli. O'qituvchining o'zi o'qiyotgan ma'ruzaning mazmuni, qurilishi,

uning borishi, temp, nutq va boshqalarni nazorat qilish shakllari. Konspektlashtirishning aniqligi, ma'ruzaning talabalarga yetib borishi, uning mazmunining talabalar tomonidan chuqur va to'liq o'zlashtirilayotganligini tekshirish usullari.

Adabiyotshunoslik fanlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar, ularning o'ziga xosligi, maqsadi, ma'ruza kurslari bilan aloqadorligi, shakllari va ularni o'tkazish metodikasi.

Adabiyotshunoslik fanlari bo'yicha seminarlarning o'ziga xos xususiyatlari va maqsadi, ularning turlari va olib borish metodikasi. O'qituvchi va talabalarning amaliy va seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishi. Unda o'qituvchining vazifalari va faoliyati.

Amaliy va seminar mashg'ulotlarida talabalar bajaradigan ishlarning mazmuni, uni faollashtirish usullari, ko'rib chiqilayotgan smasalalar bo'yicha bahs va munozaralarni tashkil etish usullari. O'tilgan amaliy va seminar mashg'ulotlarini yakunlash shakllari. Amaliy va seminar mashg'ulotlarining metodik ta'minoti.

Laboratoriya mashg'ulotlari, ularning mazmuni va olib borish metodikasi. Kollokviumlar o'quv mashg'ulotlarining shakli sifatida. Nazorat ishlari, yozma javoblar va talabalar o'quv ishlarini faollashtirishning boshqa shakllari. Konsultatsiyalar (maslahat darslar), ularning adabiyotshunoslik predmetlarini o'qitishda va talabalarning fanni o'zlashtirishdagi shakllari va roli. Nazoratlar, ularning vazifalari, turlari va shakllari, ularni o'tkazish metodikasi va madaniyati. Talabaning bilim darajasi va qobiliyatiga qo'yilgan talablar, baholash mezonlari.

6-mavzu. Adabiyotshunoslikka oid fanlarni o'rganishda o'qituvchining roli

O'qituvchi o'quv jarayoni va filologik ta'lim sistemasida yetakchi bo'g'in sifatida. Oliy ta'lim adabiyotshunos-o'qituvchisi muvaffaqiyatli faoliyatining asoslari va omillari. Adabiyotshunoslik kurslari, maxsus kurslar va seminarlarni tuzish va tayyorgarlik ko'rishda o'qituvchining faoliyati, uning o'quv jarayonidagi vazifalari. O'qitiladigan fanlar va maxsus fanlarning metodik ta'minotini, o'quv va metodik qo'llanmalarni, dasturlarni, referat ishlari, nazorat ishlari, kurs va diplom ishlari mavzularini ishlab chiqish, tayyorlash va nashr qilish bo'yicha bajariladigan ishlar. O'qituvchining o'quv ishlari, uning kasbiy mahorati, o'quv mashg'ulotlariga, ularni rejalashtirish va tahlil qilishga tayyorgarlik ko'rishi. Talabalarning o'qilayotgan kursni o'zlashtirishlari bo'yicha ishlarni tashkil etish. O'qituvchining iqtidorli talabalar va predmetlarni yaxshi o'zlashtirmaydigan talabalar bilan individual ishlash bo'yicha, talabalarni o'rganish, ular orasida betakror shaxsiy qobiliyatga ega bo'lganlarini

aniqlash va ularni rivojlantirish bo'yicha faoliyati. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, unga rahbarlik qilish.

O'qituvchining o'z malakasini oshirish, o'z ishini, uning mazmuni, texikasi, natijalari va hamkasblari bilan tajriba almashish, boshqa o'qituvchilarning pedagogik tajribasini, metodik adabiyotlarni o'rganish bo'yicha faoliyati. Shaxsiy ish rejalarini, yangi metodikalar, o'qitishning ijodiy usul va vositalarini ishlab chiqish. Talabalar ijodiy tafakkurini rivojlantirishda, ilmiy bilimlarni mustaqil ravishda izlab topa bilishida, badiiy asarlarni tahlil va talqin qilishda, ularning adabiyotshunoslik faoliyati norma va metodlarini egallashida o'qituvchining roli.

Adabiyotshunoslik fanlarini o'qitishda OUYU o'qituvchisi ilmiy-tadqiqot faoliyatining ahamiyati. Ularning o'zaro bog'liqligi, ilmiy-tadqiqot ishi natijalaridan o'quv jarayonida foydalanish, o'qituvchi tomonidan tadqiq etayotgan muammoga talabalarni jalb etish imkoniyati.

Adabiyotshunos-o'qituvchining tarbiyaga oid vazifalari. Adabiyot o'quvchilarning ichki dunyosi va ularning qadriyatlar tizimiga ta'sir etish uchun eng kuchli vosita sifatida. OO'YU o'qituvchisining ma'naviy qiyofasi. Hamkasblarga va talabalarga hurmat bilan munosabatda bo'lish o'quv jarayonini tashkil etishning muhim omili sifatida.

Fuqarolik pozitsiyasi, madaniyat, demokratizm, intellegntlik, dunyoqarash kengligi, professional kompetentsiyaga egalik, yuksak ma'naviy sifatlar o'zbek universitetlari adabiyotshunos-o'qituvchilarining an'anaviy qiyofasi. Fakultet kafedralaridagi eng yaxshi professor-o'qituvchilar.

7-mavzu. Talabalarning mustaqil o'quv ishlarini tashkil etish

Talabalarning mustaqil ishi zamonaviy oliy maktab o'quv jarayoni shakllaridan biri sifatida, uning mazmuni va shakllari/turlari. Filolog talabalarning badiiy matnlarni tahlil qilish, ilmiy va tanqidiy adabiyotlarni o'rganish va talqin qilish bo'yicha mustaqil ishi, uning metodikasi, shakllari va rejalashtirish. Talabalarning joriy ishlarini tashkil etish va ularga rahbarlik qilish. Talabalar tomonidan bajarilgan mustaqil ishlarni tekshirish usullari: o'rganilgan materialni bosqichma-bosqich topshirish, o'qilgan badiiy asar yoki ilmiy adabiyot bo'yicha hisobot berish, o'qituvchining savollariga javob berish, muayyan mavzu yuzasidan suhbatlashish va boshqalar. Talabalarda badiiy matnlarni faol va professional darajada o'qish qobiliyatini, ilmiy va tanqidiy adabiyot bilan mustaqil ishlash ko'nikmasini, ilmiy g'oyalarni, fikrlarni, konsepsiyalarni, shuningdek, badiiy asarlarning turli xildagi talqinlarini tanqidiy baholash prinsiplarini shakllantirish. Adabiyotshunoslik turkumidagi predmetlarni o'rganish uchun talabalar ishini kompyuterda tashkil etish.

8-mavzu. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishini tashkil etish

Zamonaviy o'quv jarayonida talabalar ilmiy-tadqiqot ishlari rolining oshnaligi. Talabalar ilmiy ishlari shakllari. Proseminariylar (o'zlashtirish qiyin bo'lgan mavzulardan oldingi tayyorgarlik mashg'ulotlari)da ishlash talaba ilmiy-tadqiqot faoliyatining ko'nikmalari, shakllari, texnikasini egallash ilmiy etapi – bosqichi sifatida. Amaliy va seminar mashg'ulotlaridagi chiqishlar – dokladlar talabaning ilmiy ishga yaqinlashtirish vositasi sifatida. Talabalar ilmiy konferensiyasidagi chiqishlar – dokladlar ilmiy ishning bir ko'rinishi sifatida. Talabalar ilmiy konferensiyasi talabalarning ilmiy muammo yuzasidan bahs-munozara olib borish, bir-biri bilan suhbatlashish, muloqot qilish va ko'rib chiqilayotgan muammoni birgalikda muhokama qilishni bilish vositasi sifatida. Talabalarning kurs va diplom ishlari hamda adabiyot bo'yicha boshqa yozma ishlari, ularning mavzulari, strukturasi, ularga qo'yiladigan talablar; talabalarning kurs ishlari, diplom ishlari va boshqa yozma ishlariga rahbarlik qilish metodikasi, ularni rasmiylashtirish, himoya qilish va baholash mezonlari. Talaba diplom ishining roli va ahamiyati. Talabaning diplom ishiga (BMLga) taqriz yozish, uning tuzilishi va mazmuni. Magistrlik dissertatsiyasi, unga qo'yiladigan talablar, uning tuzilishi, uni rasmiylashtirish va yoqlash. Doktorantlar, stajyorlar va tadqiqotchilarga rahbarlik qilish metodikasi va prinsiplari.

IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Talabalar darslarni, alohida mashg'ulotlarni tashkil qilishda foydalaniladigan didaktik materiallarni tayyorlash, ularni rejalashtirish hamda bevosita amaliyotda qo'llash bo'yicha amaliy topshiriqlarni bajarishadi.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Filologik ta'limning davlat standarti.
2. Dars o'tishning an'anaviy akademik shakllari (ma'ruza, seminar, kollokvium, laboratoriya ishi) va ularga tayyorgarlik ko'rish.
3. O'qitishning innovatsion shakllari: pedagogik mahorat (Bobur g'azallari semantikasi).
4. Muammoli ma'ruza o'tishga tayyorgarlik ko'rish: "Qissai Mashrab"da shoir biografiyasi to'g'ri talqin etilganmi?
5. Tadqiqotga asoslangan ma'ruza mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rish: Navoiy "Arbayn"i va hadislar.
6. "Davra stoli" shaklidagi darsni o'tishga tayyorgarlik ko'rish: Rauf Parfi she'rlaridagi tashbehtar.
7. "Qiyin" shoirlar: Bedil: integrativ ma'ruza qurilishi.

8. “Boburnoma”: laboratoriya tadqiqotiga asoslangan ma’ruza mashg’uloti.
9. “Intellektual-falsafiy she’riyat” seminar mashg’ulotini tayyorlash.
10. Eng yangi adabiyot – bahs-munozaraga asoslangan ma’ruza tuzish.
11. Filologik ta’lim tizimida jahon adabiyoti.
12. E. Xeminguey: muammoli ma’ruza tuzish
13. A. Kamyu: savollarga asoslangan ma’ruza mashg’uloti tayyorlash.
14. G’afur G’ulom (“Shum bola”): Film va qissani qiyoslash asosida amaliy mashg’ulot o’tkazish.
15. Navoiy va Bobur ruboiylari: Qiyosiy xarakterga ega bo’lgan ma’ruza matnini tuzish.
16. Auditoriyadan tashqari ishlarni tashkil etish.
17. Talabalar teatri.
18. Adabiyotshunoslik fanlari bo’yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish.
19. Talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish va uni nazorat qilish.
20. Davlat attestatsiyasiga tayyorgarlik.

Ushbu fan doirasida adabiyotshunoslikdagi ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalari jalb qilinadi hamda kompyuter yordamida badiiy asarni o’rganish tamoyillariga amal qilingan holda badiiy tahlilga kirishiladi. Jamiyatni demokratlashtirish jarayonida va iqtisodiyotni bozor tamoyiollari asosida isloh qilishda ushbu fan yoshlarni mustaqil fikrlashga o’rgatadi va barcha tahlil jarayonlariga ijodiy yondoshishni shakllantirishga yordam beradi.

Izoh: Mazkur ro’yxatdagi mavzulardan amaliy mashg’ulotlar uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish tavsiya etiladi.

V. Mustaqil ta’lim

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. Adabiyotshunoslik (filologik) fanlarini o’qitish bo’yicha xorij tajribalari.
2. Yetakchi professor-o’qituvchilar o’quv-ilmiy faoliyatini o’rganish. Ma’ruza mashg’ulotlarini kuzatib, tahlil qilish. Videolavhalar tayyorlash.
3. Muammoli ma’ruza.
4. Tadqiqotga asoslangan ma’ruza mashg’ulotiga tayyorgarlik ko’rish.
5. “Davra stoli” shaklidagi mashg’ulotlar.
6. Integrativ metodga asoslangan ma’ruza qurilishi.
7. Laboratoriya tadqiqotiga asoslangan ma’ruza mashg’uloti.
8. Savollarga asoslangan mashg’ulotlar.
9. Film, spektakl va badiiy asarni qiyoslash asosida mashg’ulot o’tkazish.
10. Qiyosiy xarakterga ega bo’lgan ma’ruza matnini tuzish.
11. Filologik ta’lim tizimida jahon adabiyoti.

Magistrant mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, **quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:**

- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik;
- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy ta'lim.

Izoh: Mazkur dasturni shakllantirish jarayonida mustaqil ta'lim soatlari hajmiga mos holda mavzularni tanlab belgilash tavsiya etiladi.

VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1. To'xlijev B. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. –T.: 2008.
2. David Damrosch. How to Read World Literature. Second Edition. –United Kingdom, 2009.

Qo'shimcha adabiyotlar:

3. Ш. Мирзиёев. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Т.: Ўзбекистон, 2016.
4. Ш. Мирзиёев. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халкимиз билан бирга қурамиз. Т.: Ўзбекистон, 2017.
5. Ш.Мирзиёев. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Т.: Ўзбекистон, 2017.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари” тўғрисида (Халқ сўзи 2017 йил, 21 апрель).
7. О'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. –T.: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
8. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. –Т.: Ўқитувчи, 1996.
9. Матчионов С. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. –Т.: Ўқитувчи, 1996.
10. Ганьшина Г.В. Методика преподавания специальных наук. Учебное пособие для бакалавриата, специалитета и магистратуры. 2-е издание. – Москва: Юрайт, 2019. <https://biblio-online.ru/viewer/metodika-prepodavaniya-specialnyh-disciplin-445284>.

11. Образование и XXI век. Информативные и коммуникативные техноло-гии. –М., 1999.

12. Актуальные вопросы литературоведения и методики преподавания ли-тературы: Сб. научн. работ. Вып.1. –Саратов, 2000.

Internet saytlari

13. www.ZiyoNet
14. www.nuqf.intal.uz
15. www.ziyouz.com
16. www.ref.uz
17. www.tdpu.uz
18. www.pedagog.uz
19. www.nutq.intal.uz
20. <http://www.muiimedia.uz>
21. www.tilvaadabiyot.uz

M. Tundixojayeva

